



## QISHLOQ XO‘JALIGIDA ISHLAB CHIQUARISH RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)

**Abdurayimov Kamoliddin Xurram o‘g‘li**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Iqtisodiyot”

Kafedra o‘qituvchisi

abdurayimovkamoliddin8@gmail.com

**Annotatsiya:** *Qishloq xo‘jaligi xalq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biridir. U aholi uchun oziq-ovqat, qayta ishlash sanoati uchun xomashyo ishlab chiqaradi va jamiyatning boshqa ehtiyojlarini qondiradi. Shu bois, hozirgi zamonning dolzarb muammosi tarmoq samaradorligini yanada oshirishdir.*

**Kalit so‘zlar:** *qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti, statistika, sof foyda, tushum, asosiy ishlab chiqarish*

**Аннотация:** *Сельское хозяйство является одной из важнейших отраслей народного хозяйства. Оно производит продовольствие для населения, сырьё для перерабатывающей промышленности и удовлетворяет другие потребности общества. Поэтому актуальной проблемой современности является дальнейшее повышение эффективности отрасли.*

**Ключевые слова:** *экономика сельского хозяйства, статистика, чистая прибыль, доход, основное производство.*

**Abstract:** *Agriculture is one of the most important sectors of the national economy. It*

*produces food for the population, raw materials for the processing industry, and meets other needs of society. Therefore, the current problem is to further increase network efficiency.*

**Keywords:** *agricultural economics, statistics, net profit, revenue, basic production*

### **Kirish**

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti hamda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, hozirgi vaqtda dunyoda deyarli har to‘qqiz odamning biri to‘yib ovqatlanmayapti, sayyoramiz aholisining 30 foizidan ziyodi to‘laqonli ravishda ovqatlanmaslik, eng asosiy mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosini boshidan kechirmoqda. “Yer yuzi aholisining tez ko‘payib borayotgani bilan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘shish imkoniyatlari cheklangani o‘rtasidagi tafovut oziq-ovqat dasturini hal etish masalasi yildan-yilga keskinlashib borayotganining asosiy sababi ekani, natijada atrof-

muhitning ekologik jihatdan buzilishi hamon davom etayotgani, iqlim o‘zgarishlarining oldindan aytib bo‘lmaydigan oqibatlari, tez-tez takrorlanayotgan qurg‘oqchilik va suv resurslari taqchilligi, jumladan, sug‘orish uchun yer osti suvlarining tugab borayotgani, irrigatsiya, melioratsiya va yerlarning unumdorligini qayta tiklashga yo‘naltiriladigan investisiyalarning yetarli emasligi oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash borasida hal etishni talab qilayotgan o‘ta muhim muammolar”dir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017— 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshtaustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmonida qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadalrivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan [1]. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi tarmog‘i mamlakatimiz yalpi ichki mahsuotida ham salmoqli o‘rin egallagan. 2024-yilda qishloq, o‘rmon va baliqchilik sektori YaIMdagi ulushi 18,33 % ni tashkil qilgan [2]. Mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun zarur bo‘lgan erkin harakatdagi valyuta tushumining yarmidan ko‘prog‘i shu tarmoq mahsulotlarini eksport qilishdan olinadi[3]. Aholining yarmidan ko‘proq qismi qishloqlarda yashaydi. Xalqimizning turmush darajasi, inson resurslarining katta qismini ish bilan ta‘minlashi qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq. Bugungi kunda iqtisodiyotda band bo‘lgan mehnat resurslarining 28% dan ko‘prog‘i qishloq va o‘rmon xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatadi[3]. Qishloq xo‘jaligining asosiy vazifalari ishlab chiqarishning yanada o‘sishi va barqarorligini ta‘minlash, aholining oziq-ovqat va sanoatga bo‘lgan ehtiyojini xomashyoga to‘liq qondirish maqsadida qishloq xo‘jaligi va chorvachilik samaradorligini oshirish zarur davlat zaxiralarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yaratishdan iborat. Qishloq xo‘jaligi faoliyati samaradorligini oshirish nafaqat butun ishlab chiqarishni boshqarish tizimida, balki xo‘jalik ichidagi rejalashtirish, nazorat va tahlil tizimidagi eng muhim iqtisodiy rishtalardan biridir. Shu bois qishloq xo‘jaligi faoliyati samaradorligini oshirish choralari ishlab chiqish tarmoqning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda, birinchi navbatda, qishloq xo‘jaligi faoliyati samaradorligini oshirish orqali rentabellikni oshirishga va foydani ko‘paytirishga erishish zarur. Ishlab chiqarishning foydasi va rentabelligi korxona tomonidan olib boriladigan ishlab chiqarish, ta‘minot va marketing faoliyatiga bog‘liq. O‘zbekiston iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida qishloq xo‘jaligi faoliyati samaradorligi muammosi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi – xo‘jalik yurituvchi sub’ektning qishloq xo‘jaligidagi moliyaviy-xo‘jalik faoliyati samaradorligi, yuqori ko‘rsatkichlarga erishishni, samaradorlik, rentabellik, mahsulot sifatini ta‘minlash qobiliyatidir. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi ko‘rsatkichlar tizimi yordamida o‘lchanadi, ya‘ni mehnat unumdorligi, kapital unumdorligi, tannarx, rentabellik, hosildorlik va boshqalar. Shu munosabat bilan hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligi faoliyati samaradorligini oshirish dolzarbdir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida ham o‘z aksini topgan [4].

#### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI**

Qishloq xo‘jaligi shakllari, xususan fermer xo‘jaliklaridagi turli tashkiliy iqtisodiy faoliyatni samarali yuritish va shuningdek, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muammolari T.X.Farmanov, A.Xurramov, A.A.Radjabov, N.Ya.Kovalenko, Z.Kayyali, A.A. Konygin, A.A.Abdug‘aniyev, R.F.Sultonov, Sh.Sh.Shodmonov, Sh.E.Qarshiyev kabi xorijiy va milliy iqtisodchilar tomonidan keng tadqiq etilgan va o‘rganilgan.

Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida Respublikada yillar davomida irrigatsiya va melioratsiya holati yomonlashuvi natijasida foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni bosqichma-bosqich qayta foydalanishga kiritish, yer osti suv zaxiralaridan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda ichki irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish orqali suv yo‘qotilishini kamaytirish, shuningdek, bu ishlarda salohiyatli investorlar ishtirokini ta‘minlash maqsadida bir qator chora tadbirlar:

Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasi;

Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”;

2020-2030 yillarda qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning prognoz ko‘rsatkichlari;

2019-2022 yillar davomida qishloq xo‘jaligi yerlarida suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilishning prognoz ko‘rsatkichlari;

Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasini amalga oshirish doirasida xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik qilish va davlat-xususiy sheriklikni joriy etish bo‘yicha ishchi guruhi tasdiqlanishi belgilangan[5].

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mulohaza yuritish, kuzatish, solishtirish, tanlash, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, ekspert baholash, sintez, analiz, ma'lumotlarni taxlil qilish vataqqoslama tahlil, induksiya va deduksiya, klassifikasiyalash, algoritmlashtirish, dasturlash va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy tahlil usullari asos qilib olindi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 467 041,5 mlrd so'mni shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 451 019,6 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 11 778,4 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 4 243,5 mlrd so'mni tashkil qilgan. 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 103,1 % ni, o'rmon xo'jaligi – 103,0 % ni, baliqchilik xo'jaligi – 97,2 % ni tashkil qilgan. 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 444 586,4 mlrd so'mni yoki 2023-.yilning mos davriga nisbatan 103,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 218 824,1 mlrd so'mni (102,2 %) chorvachilik mahsulotlari – 225 762,3 mlrd so'mni (104,0 %) tashkil qilgan[6].

Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillarga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 63,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 29,7 % i fermer xo‘jaliklariga, 7,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelgan. Asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ulushi quyidagicha:

|                      |      |
|----------------------|------|
| Sog‘ib olingan sut   | 92,5 |
| Go‘sh (tirik vaznda) | 84,6 |
| Kartoshka            | 68,8 |
| Sabzavotlar          | 58,3 |
| Uzum                 | 51,5 |

**1-chizma. Asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ulushi, %.**

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 8 855,2 ming t donli ekinlar (2023-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,8 % ga ko‘p), 3 716,8 ming t kartoshka (4,0 % ga ko‘p), 11 994,8 ming t sabzavotlar (3,8 % ga ko‘p), 2 683,6 ming t poliz ekinlari (5,1 % ga ko‘p), 3 271,2 ming t meva va rezavorlar (4,8 % ga ko‘p), 1 825,8 ming t uzum (5,4 % ga ko‘p), 2 938,1 ming t paxta (xom ashyosi) (20,8 % ga kam) yetishtirilgan[6].


2024-yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda yetishtirilgan donli ekinlar 8 855,2 ming tonnani, yoki 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda 104,8 % ni tashkil etgan. 2023-yilning mos davriga nisbatan ko‘rsatib o‘tilgan davrlarda, fermer xo‘jaliklarida 4,8 %, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 6,2 % va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 3,3 % o‘sish qayd etilgan[6].

Respublikamizning asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirib beradigan Surxondaryo viloyatining tog‘li hududlari meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, kartoshka, urug‘lar etishtirishga ixtisoslashgan va dasht hududlari – chorvachilikga moslashgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini tashkil etishga keng imkoniyat yaratib beradi. 2024 yilda Surxondaryo viloyatida 36 655,9 mlrd. so‘mlik qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirilgan. Yoki, 2023-yilga nisbatan 103,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 36 087,1 mlrd. so‘mni (103,1 %), o‘rmon xo‘jaligi - 395,3 mlrd. so‘mni (103,0 %), baliqchilik xo‘jaligi -173,5 mlrd. so‘mni (104,2 %) tashkil qilgan. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Surxondaryo viloyatining ulushi 7,8 % ni tashkil etgan[7].

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Denov (5 738 mlrd. so‘m) va Sherobod tumanlarida (4 072 mlrd. so‘m) qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Bandixon tumanlari (1 099 mlrd. so‘m) va Termiz shahri (170 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin[7].

Viloyat ko‘rsatkichidan (103,1 %) yuqori o‘sish sur‘atlari Oltinsoy (116,3 %), Termiz shahrida (113,2 %), Sho‘rchi (104,6 %), Uzun (104,0 %), Boysun (103,6 %), Denov (103,5 %) va Jarqo‘rg‘on tumanlarida (103,3 %) kuzatilgan. Termiz (102,9 %),


Qumqo‘rg‘on (102,7 %), Bandixon (101,9 %), Angor (101,6 %), Muzrabot (101,5 %), Sherobod (101,1 %), Qiziriq (100,6 %) va Sariosiyo tumanlarida esa (100,4 %) aksincha o‘shish sur‘atlari pastligi kuzatilgan. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 35 773,1 mlrd. so‘mni yoki 2023-yilga nisbatan 103,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 18 049,8 mlrd. so‘mni (103,6 %), chorvachilik mahsulotlari – 17 723,3 mlrd. so‘mni (102,6 %) tashkil qilgan[7].



**2-chizma. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, %.**

Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 66,7% i - dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 24,7 % i - fermer xo‘jaliklariga, 8,6 % i - qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari ulushi**



**3-chizma. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha ulishi, %.**

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi ma’lumotlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ulushi sezilarli darajada yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Aynan dehqon xo‘jaligini kengaytirish, qishloq xo‘jaligi yerlarini, yerning meliorativ holatiga qarab bo‘lib berish ya’ni Denov, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, SHo‘rchi tumanlari qishloq xo‘jaligi yerlarining Qiziriq, Muzrabot, Bandixon Sherabot kabi tumanlar yeridan unimdorligi yuqoriligini hisobga olgan holda 1 gektardan, 4-5 gektargacha hajimda uzoq muddatli shartnoma asosda bo‘lib berish qishloq xo‘jaligida ishlovchi aholimizga foydali bo‘ladi. Qishloq joylarda 30 - 50 sotixdan bo‘lib berish tajribasi o‘zini oqlayotgani yo‘q, yerning unimdorlik holatini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Bizning maqsadimiz qishloq joyda yashovchi aholini nafaqat kambag‘allikdan chiqarish, uni boy qilish, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotni ko‘tarishdir. Muzrabot tumanida muallif tomonidan dehqonlar bilan o‘tkazilgan mustaqil so‘rovnoma 50 sotix yer maydonidan yillik daromad qancha bo‘lishini jadvalda ko‘rib o‘tamiz:

| An’anaviy yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi maxsulotlari: | 50 sotix maydonda o‘rtacha yetishtirilgan maxsulot (kg) | 1 kg uchun narx (so‘m) | Yillik umumiy daromad (mln. so‘m) | Yillik umumiy xarajat (mln. so‘m) | Yillik umumiy foyda (mln. so‘m) |
|-------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|------------------------|-----------------------------------|-----------------------------------|---------------------------------|
| Bug‘doy (poyasi)* <sup>1</sup>                              | 2000                                                    | 4000                   | 8 +(1,5)                          | 3,5+(0,2)                         | 5,8                             |
| Mosh (poyasi)* <sup>2</sup>                                 | 450                                                     | 13000                  | 5,85+ (3)                         | 3,5+(0,2)                         | 5,15                            |
| Makka jo‘xori (poyasi)* <sup>3</sup>                        | 1500                                                    | 3500                   | 5,25 +(3)                         | 4,5+(0,2)                         | 3,55                            |
| Kartoshka                                                   | 10000                                                   | 4500                   | 45                                | 20                                | 25                              |
| Piyozi                                                      | 25000                                                   | 2500                   | 62,5                              | 31                                | 31,5                            |
| Savzi                                                       | 15000                                                   | 3500                   | 52,5                              | 25                                | 27,5                            |

**4- chizma: An’anaviy yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi maxsulotlaridan 50 sotix maydonda o‘rtacha yillik foyda ko‘rsatkichlari (Muzrabot tumani kesimida).**

Kartoshka, piyoz, savzi mavsumiga qarab foyda olinishi o‘zgarib turadi. Agar 5 gektar maydonda hisoblasak, yiliga bug‘doydan 58 mln so‘m, moshdan 51,5 mln so‘m, makkajo‘xoridan 35,5 mln so‘m, kartoshkadan 250 mln so‘m, piyozdan 315 mln so‘m, savzidan 275 mln so‘m foyda olsa bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligi isloxotida aholiga yerlarni uzoq muddatli ijaraga bo‘lib berishda oilalarga bo‘lib berish tizimini taklif qilamiz. Qishloqda yashovchi oilalarda o‘rtacha 2-3 kishi “vaqtincha ishsiz” holatida bo‘ladi va

<sup>1</sup> Somon poyasi daromad va xarajatga qo‘shib hisoblangan

<sup>2</sup> Mosh poyasi daromad va xarajatga qo‘shib hisoblangan

<sup>3</sup> Makkajo‘xori poyasi daromad va xarajatga qo‘shib hisoblangan

ularning aksariyat mehnatga layoqatli qismi xorijiy davlatlarga ishlashga ketishadi. Hozirgi kunda o‘zini o‘zi band qilish amaliyoti ishsiz aholining bandligini qaysidir ma’noda taminlashi mumkin lekin bu amaliyot bilan ishsizlik muammosini real hal qilib bo‘lmaydi. Bu masalaga jiddiy, kreativ yondoshuv talab etiladi. Aksariyat ishsiz aholi qishloq hududlarida yashashini hisobga olsak yerlarni (meliorativ) holatiga qarab 1 gektardan, 4-5 gektargacha oilalarga uzoq muddatli bo‘lib berish:

Millionlab ishsiz aholini ish bilan band qiladi;

Hosildorlikni oshiradi;

Agrosanoat sohasini kengaytiradi va takomillashtiradi;

Export hajmini sezilarli oshiradi.

#### **FOYDANALINGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF – 4947-sonli Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/3107036>

2. World Bank, Trading Economics portal, 2024

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2024 hisobotlari

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “Fermar, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni 2017 yil 9 oktyabr. [www. Lex.uz.](http://www.lex.uz)

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV Toshkent shahri, 2019 yil 17 iyun, Manba: O‘zA

6. Uz stat.

7. Surxondaryo viloyati statistika qo‘mitasi